

KUZGI JAVDAR NAVLARI O‘SIMLIK BO‘YIGA MA‘DAN O‘G‘ITLAR ME‘YORI VA SUG‘ORISH TARTIBLARINING TA‘SIRI

Xasanov Bobur Rustam o‘g‘li,

qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori (PhD), doktorant,
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
ORCID ID: 0000-0001-8374-9073.

Go‘zal Ibragimova Solijon qizi,

tadqiqotchi,
Qarshi davlat texnika universiteti,
ORCID ID: 0009-0003-9451-6496.

Annotatsiya. Maqolada kuzgi javdar navlarining naychalash, boshqoqlash va pishish davrlariga mos holda o‘simlik bo‘yining uzunligiga ma‘dan o‘g‘itlar me‘yori va sug‘orish tartiblarining ta‘siri o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Javdar, nav, ma‘dan o‘g‘it me‘yori, sug‘orish tartiblari, o‘simliklar balandligi, «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116».

Аннотация. В статье изучено и проанализировано влияние доз минеральных удобрений и режимов орошения на высоту растений в зависимости от периодов кущения, колошения и созревания сортов озимой ржи.

Ключевые слова: рожь, сорт, доза минеральных удобрений, режим орошения, высота растений «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116».

Abstract. The article studies and analyzes the influence of mineral fertilizer doses and irrigation regimes on plant height depending on the periods of tillering, heading and ripening of winter rye varieties.

Keywords: rye, variety, dose of mineral fertilizers, irrigation regime, plant height, «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116».

Kirish. Mamlakatimizda qishloq ho‘jaligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, ayniqsa, aholini don va non mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, don hosili va sifat ko‘rsatkichlariga e‘tiborni yanada kuchaytirish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Ushbu muammoni hal etishda javdar ekinini yetishtirishning ilg‘or agrotexnologiyalarini joriy qilish orqali aholi uchun foydali va parxezbop bo‘lgan don va non mahsulotlarini ishlab chiqarish o‘ta muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Kuzgi javdar ekinini yetishtirilayotgan mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga, ma‘dan o‘g‘itlarga va namlikka talabchan o‘simlik bo‘lib, uning mahsuldorligi ushbu omillarga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Hosildorlikni esa, ekilayotgan urug‘larning sifati, unuvchanligi, tuproq unumdorligi va meliorativ holati, ekin maydonidagi ko‘chat qalinligi va mahsuldor poyalar soni kabi asosiy ko‘rsatkichlar belgilab beradi.

Qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish, o‘simlikda barcha fiziologik jarayonlarning normal kechishi, jadal o‘sib rivojlanishiga xamda o‘simliklarning baquvvat va sog‘lomligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, o‘simliklarning yaxshi o‘sishi va rivojlanishi uchun birinchi navbatda issiqlik, namlik, yorug‘lik, kislorod, tuproqning fizik va kimyoviy tarkibi, turli oziq elementlari, ma‘lum tuproq sharoitlari va ekologik muhitni hisobga olib borish zarurdir. O‘simlik uchun birona kerakli omil yetishmay qolsa, albatta hosildorlik sezilarli darajada kamayib ketadi [1-3].

Material va uslublar. Dala tajribalari Qashqadaryo viloyatining ko‘kdala tumani “Oqquduq agro” fermer xo‘jaligida o‘tkazildi. Tadqiqotlarda, kuzgi javdarning «Shalola», «Falenskaya-4» va «Vaxshskaya 116» navlarini ma‘dan o‘g‘it qo‘llanilmagan mutloq nazorat (o‘g‘itsiz) va ma‘dan o‘g‘itlar $N_{240}P_{120}K_{90}$; $N_{160}P_{80}K_{60}$; $N_{200}P_{100}K_{75}$,

$N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me‘yorlari hamda sug‘orishning ChDNSga nisbatan 70-75-60 va 75-80-70 % tartiblarining kuzgi javdar navlari o‘simlik bo‘yiga sezilarli ta‘siri ma‘lum bo‘ldi.

Natijalar va munozara. Bugungi kunda javdar navlaridan mo‘l va sifatli hosil yetishtirish uchun urug‘larni qulay muddat va me‘yorda ekish, parvarishlashda ma‘danli o‘g‘itlar va sug‘orish tartiblarini ishlab chiqish talab etiladi.

Olib borgan tajribalarimizda, kuzgi javdar navlari o‘simlik bo‘yining balandligiga naychalash, boshqoqlash va mum pishish davrlari bo‘yicha ma‘dan o‘g‘itlar me‘yorlari va sug‘orish tartiblarining ta‘siri sezilarni bo‘lganligi aniqlandi. Bunda, kuzgi javdar navlari bo‘yicha eng baland o‘simliklar «Shalola» navida mum pishish davrida 118,3 sm dan 155,1 sm gachani tashkil qilgan bo‘lsa, «Vaxshskaya 116» navida bu ko‘rsatkichlar 107,5 sm dan 141,0 sm gacha, «Falenskaya 4» navida esa, 98,6 sm dan 129,3 sm gachani tashkil qildi. Bunda, «Shalola» navida o‘simliklar bo‘yi «Vaxshskaya 116» naviga nisbatan 10,8 sm dan 14,1 sm gacha, «Falenskaya 4» naviga nisbatan esa 19,7 sm dan 25,9 sm gacha baland bo‘lganligi qayd etildi (1-jadval).

Tadqiqotlarimizda, javdar navlari o‘simliklari bo‘yining balandligi sug‘orishning 70-75-60 va 75-80-70 % tartiblariga mos holda ortib borganligi ma‘lum bo‘ldi. Bunda, kuzgi javdarning «Shalola» navida mum pishish davrida sug‘orishning 70-75-60 % tartibida o‘simliklar bo‘yi 118,3-149,1 sm ni tashkil qilgan bo‘lsa, sug‘orishning 75-80-70 % tartibida bu ko‘rsatkichlar 123,0-155,1 sm ni yoki 70-75-60 % tartibiga nisbatan 4,7-6,0 sm ga baland bo‘ldi. Shuningdek huddi shunda qonuniyatlar kuzgi javdarning «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116» navlarida ham kuzatilib, «Falenskaya 4» navida o‘simliklar balandligi sug‘orishning 70-75-60 % tartibida 98,6-124,3 sm, «Vaxshskaya 116» navida

Kuzgi javdar navlari o'simliklar balandligiga sug'orish tartiblari va ma'dan o'g'itlar me'yorlarining ta'siri.

№	Navlar	Sug'orish tartibi, %	Ma'dan o'g'itlar me'yori, kg/ga	O'simlik bo'yi, sm		
				To'liq naychalash 75% (1 apr)	To'liq boshqalash 75% (1 may)	To'liq mum pishish 75% (1 iyun)
1	«Shalola»	70-75-60	Nazorat (O'g'itsiz)	71,7	107,5	118,3
2			N160P80K60	76,0	114,1	125,5
3			N200P100K75	81,2	121,9	134,0
4			N240P120K90	90,4	135,6	149,1
5		75-80-70	Nazorat (O'g'itsiz)	74,5	111,8	123,0
6			N160P80K60	79,1	118,6	130,5
7			N200P100K75	84,5	126,7	139,4
8			N240P120K90	94,0	141,0	155,1
9	«Falenskaya 4»	70-75-60	Nazorat (O'g'itsiz)	59,7	89,6	98,6
10			N160P80K60	63,4	95,1	104,6
11			N200P100K75	67,7	101,5	111,7
12			N240P120K90	75,3	113,0	124,3
13		75-80-70	Nazorat (O'g'itsiz)	62,1	93,2	102,5
14			N160P80K60	65,9	98,9	108,8
15			N200P100K75	70,4	105,6	116,2
16			N240P120K90	78,3	117,5	129,3
17	«Vaxshskaya 116»	70-75-60	Nazorat (O'g'itsiz)	65,2	97,7	107,5
18			N160P80K60	69,1	103,7	114,1
19			N200P100K75	73,9	110,8	121,9
20			N240P120K90	82,2	123,3	135,6
21		75-80-70	Nazorat (O'g'itsiz)	67,8	101,7	111,8
22			N160P80K60	71,9	107,9	118,6
23			N200P100K75	76,8	115,2	126,7
24			N240P120K90	85,5	128,2	141,0

107,5-135,6 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, sug'orish 75-80-70 % tartibida navlarga mos holda 102,5-129,3 sm va 111,8-141,0 sm yoki 70-75-60 % tartibiga nisbatan 3,9-5,0 sm va 4,3-5,4 sm ga baland bo'lganligi aniqlandi.

Tajribalarimizda, ma'dan o'g'itlar me'yorlari kuzgi javdar navlari o'simliklar bo'yiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bunda, ma'dan o'g'itlarning nazorat (O'g'itsiz); $N_{160}P_{80}K_{60}$; $N_{200}P_{100}K_{75}$ va $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me'yorlariga o'simliklar bo'yi to'g'ri proporsional ortib borganligi ma'lum bo'ldi.

Jumladan, kuzgi javdarning «Shalola» navi mum pishish davrida o'simliklar bo'yi sug'orishning 70-75-60 % tartibida, nazorat (O'g'itsiz) bo'lgan 1-variantda 118,3 sm, ma'dan o'g'itlar me'yori $N_{160}P_{80}K_{60}$ kg/ga qo'llangan 2-variantda 125,5 sm, ma'dan o'g'itlar me'yori $N_{200}P_{100}K_{75}$ kg/ga me'yorida 3-variantda 134,0 sm, o'g'itlar $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me'yorida esa 149,1 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, huddi shu ko'rsatkichlar ma'dan o'g'itlarga mos holda sug'orishning 75-80-70 % tartibidagi 5; 6; 7; 8 variantlarda 123,0; 130,5; 139,4; 155,1 sm ni tashkil qilganligi aniqlandi.

Bunda, ma'dan o'g'itlar me'yori nazorat (O'g'itsiz) bo'lgan (1 va 5-variantlar) variantlardagi o'simliklar bo'yiga nisbatan, ma'dan o'g'itlar me'yori $N_{160}P_{80}K_{60}$ kg/ga qo'llanganda (2 va

6-variant) o'simliklar bo'yi 7,2 va 7,5 sm ga, ma'dan o'g'itlar me'yori $N_{200}P_{100}K_{75}$ kg/ga qo'llanganda (3 va 7-variant) o'simliklar bo'yi 15,8 va 16,4 sm ga, o'g'itlarning $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me'yori qo'llanganda (4 va 8-variantlar) esa, 30,9 va 32,1 sm ga baland bo'lganligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarimizda, yuqoridagi kabi qonuniyatlar kuzgi javdarning «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116» navlarida ham kuzatilganligi qayd qilindi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, variantlar kesimida mum pishish davrida eng baland o'simliklar kuzgi javdarning «Shalola» navi sug'orishning 75-80-70 % tartibida, ma'dan o'g'itlar me'yori $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga qo'llangan 8-variantda 155,1 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, nisbatan past bo'yli o'simliklar esa kuzgi javdarning «Falenskaya 4» navi sug'orishning 70-75-60 % tartibidagi nazorat (O'g'itsiz) bo'lgan 9-variantda 98,6 sm ni tashkil qilganligi qayd etildi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlarimizdan xulosa qiladigan bo'lsak, kuzgi javdar navlaridan sifatli va yuqori don yetishtirish uchun javdar navlarini avvalambor maqbul tartibda sug'orish hamda ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirish kabi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va me'yorida bajarish orqali erishish mumkin.

ADABIYOTLAR:

- Atabaeva X.N., Azizov B.M. "Bug'doy" – Toshkent. 2008. – B. 136.
- Xaidmuxamedova Z.L. "O'simlikshunoslik" – Toshkent. 2010. – B. 92.
- Adashev I. Kuzgi bug'doy navlarini ekish muddatlarining don sifat ko'rsatkichlariga ta'siri // Agro ilm – O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali. №3. 2022 y. – B. 20-21.